MUSTAQILLIK YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA TURIZM STATISTIKASI: TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Sanjar Mardonov
Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar institute
“Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.15041269

Annotatsiya. *Turizm sohasi har qanday mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va xalqaro hamkorlik darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, turizm sohasi jadal rivojlana boshladi va milliy iqtisodiyotning strategik yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Turizmning holati va rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilishda statistik ma’lumotlar muhim ahamiyat kasb etadi.*

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda turizm statistikasi tizimi tubdan isloh qilindi, yangi metodologik yondashuvlar joriy etildi va xalqaro standartlarga mos ravishda takomillashtirildi. Xususan, turizm oqimlarini aniqlash, mehmonxona va infratuzilma tarmog‘ining o‘sishini baholash hamda turistik xizmatlar eksportining iqtisodiy ahamiyatini o‘rganish bo‘yicha statistik usullar rivojlantirildi.

Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonda turizm statistikasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va zamonaviy metodologiyalar tahlil qilinadi. Shuningdek, turizm statistikasi tizimining samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar va kelajak istiqbollari haqida fikr yuritiladi

Kalit so`zlar: *Turizm statistikasi, Turistik oqimlar, Turizm iqtisodiyoti, O‘zbekiston turizmi, Turistik infratuzilma*

Adabiyotlar Tahlili: Taleb Rifai, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon Turizm Tashkiloti (BTT) bosh kotibi sifatida, Toshkentga tashrifi davomida turizm sohasida samarali strategiyalar ishlab chiqish uchun statistik ma’lumotlarning muhimligini alohida ta’kidlab o‘tdi. U turizm statistikasi sohasidagi muammolarni tahlil qilar ekan, quyidagicha fikr bildirdi: “Turistik mahsulotlarga bo‘lgan talab va taklif hajmini belgilashda aniq ko‘rsatkichlar va ma’lumotlardagi nomuvofiqliklar samarali strategiyalar ishlab chiqishda asosiy to‘siqdir. Bu ma’lumotlarni faqat yig‘ish emas, balki ularni chuqur va to‘g‘ri tahlil qilish ham o‘ta muhimdir.” Ushbu bayonot turizm sohasining rivojlanishida statistik ma’lumotlarni to‘plash va ulardan foydalanishning naqadar ahamiyatli ekanini ochib beradi. Rifai xalqaro miqyosda qabul qilingan standartlarning statistik ma’lumotlar sifatiga bo‘lgan talabni oshirayotganini hamda bu talablar milliy turizm siyosatini yaxshilashda muhim o‘rin tutishini qayd etdi.

O'zbekiston o'zining boy madaniy merosi, tarixiy obidalari va go'zal tabiati bilan, turizmni rivojlantirishga katta e'tibor qaratadigan davlatlar qatoriga kiradi. “O'zbekiston – 2030» Strategiyasida O'zbekistonda tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng sharoitlar yaratish orqali sayyohlar sonini oshirish vazifasi qo'yilgan.

Xorijiy turistlar tashrifi bo'yicha O'zbekiston pandemiyadan oldingi darajaning 98 foizini tashkil etdi. Jumladan, 2019 yilda O'zbekistonga 6 mln. 748 ming nafar xorijiy turistlar tashrif buyurgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 6 mln. 626 ming nafarga yetdi. Bu esa mamlakatimizda turizm sohasining tez sur'atlar bilan tiklanayotganini ko'rsatadi.

O'zbekistonga xorijiy turistlarni yanada ko'proq jalb qilish maqsadida viza rejimini soddalashtirish chora-tadbirlari, yangi yo'nalishlarni ishlab chiqish, soha bilan bog'liq loyihalarga investitsiya kiritish, yirik tadbirlarni o'tkazish kabi amaliy ishlar olib borilmoqda.

Masalan, 2023 yilda umumiy qiymati 9,5 trln. so'mlik 508 ta loyiha amalga oshirilganligi hisobiga jami 9 492 ta yangi ish o'rni yaratildi. 183 ta yangi mehmonxona va 232 ta xostel faoliyati yo'lga qo'yilib, jami joylashtirish vositalari soni 5 526 taga yetdi. Shuningdek, 452 ta oilaviy mehmon uyi tashkil qilinib, ularning umumiy soni 3 458 taga yetdi. Turistlar uchun xizmat ko'rsatuvchi 810 ta yangi turistik tashkilot va turagentlar faoliyati yo'lga qo'yilishi natijasida ularning soni 2 649 taga yetdi.

2017-2023 yillar davomida O'zbekistonga xorijiy turistlar soni yil sayin ortib bordi. Xususan, 2017 yilda 2,7 mln. nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023 yilga kelib 6,6 mln. nafarni tashkil etdi, bu esa 2017 yilga nisbatan 2,5 barobarga, 2022 yilga nisbatan esa 1,3 barobarga oshganini ko'rishimiz mumkin.

Jadval I

2023-yilda O‘zbekistonga kelgan sayyohlarning yoshi bo‘yicha taqsimoti

Yosh guruhi	Sayyohlar soni (ming)	Ulushi (%)
18 yoshgacha	723,3	10,9
19-30 yosh	846,5	12,8
31-55 yosh	3 273,6	49,6
50 yoshdan yuqori	1 069,6	16,2

Sayyohlar soni 2023 yilda Yaponiyadan – 5 barobar, Hindiston va Italiyadan – 3,5 barobar, AQShdan – 2 barobarga ortdi.

O'zbekistonga 2023 yilda kelgan xorijiy turistlarning 80,7 foizi qo'shni davlatlar, 11,5 foizi qolgan MDH davlatlari hamda 7,8 foizi boshqa davlatlar hisobiga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga, turistlarning o'rtacha qolishi 4-5 kunni tashkil etib, 2022 yilga (3 kun) nisbatan 1,5 baravarga ortdi. Bu esa mamlakatda turistlarga har tomonlama qulaylik yaratilganligining natijasidir.

Ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha ham bir qator amaliy choralar ko'rilmoqda. "O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" dasturi doirasida 15 mln. nafar aholi sayohatga chiqdi va hududlar bo'ylab 21 mln. tashrif uyushtirildi. Ijtimoiy ko'mak sifatida 1,1 ming nafar imkoniyati cheklangan shaxs va 570 ming nafar yoshlar sayohatga chiqarildi.

2023 yilda turistik xizmatlar eksporti 2 mlrd. 143,5 mln. doll.ni tashkil etdi, bu 2022 yilga nisbatan 1,3 barobar oshganini ko'rsatadi. Shuningdek, turizm va unga yondosh sohalar yo'nalishida 70 ming nafarga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Bu esa mamlakatda turistlarga har tomonlama qulaylik yaratilganligining natijasidir.

Jadval II

2023-yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlarning
mamlakatlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

Mamlakat	Sayyohlar soni (ming)
Qozog‘iston	1 551,1
Tojikiston	1 447,8
Qirg‘iziston	1 356,9
Rossiya	567,7
Turkiya	75,6
Janubiy Koreya	19,9
Germaniya	17,7
AQSh	13,1
Fransiya	11,0
Buyuk Britaniya	10,5

Turizmning rivojlanishi, shuningdek, mamlakatimizning xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashini ta'minlamoqda. Masalan, "Jahon musulmon sayohati indeksi" (GMTI-2023) xalqaro ziyorat turizmi reytingida O'zbekiston 140 ta mamlakat ichida 13-o'rinni egalladi. "Halal In Travel Awards 2023" tadbirida Xiva shahri "Yilning islom merosi turizm manzili" sovrinini qo'lga kiritdi.

2023 yilda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan UNWTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasida Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog'i "Best Tourism Village 2023 Awards" nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ldi. Bundan tashqari, "Lonely Planet" xalqaro nashriyot kompaniyasi tomonidan 2024 yil uchun "O'zbekiston – eng yaxshi sayohat maskani" nominatsiyasi g'olibi bo'lganligi munosabati bilan O'zbekistonga maxsus sertifikat topshirildi.

Metodologiya: Ushbu maqolani yozishda oldingi ilmiy tadqiqotlar chuqur o‘rganilib, ularning taqqoslash usuli orqali tahlil qilindi. Turizm statistikasi va uning iqtisodiy ta’siri bo‘yicha maqolalar, kitoblar hamda xalqaro tashkilotlarning (UNWTO, OECD, WTTC) hisobotlari asosida tahlillar olib borildi.

Natijalar: O‘zbekiston mustaqillikga erishganidan so‘ng, mamlakatning turizm sektori jadal rivojlanish jarayoniga kirishdi. Bu rivojlanishning asosiysi, albatta, turizm statistikasining samarali tizimini yaratish va uning xalqaro standartlarga moslashishini ta’minlashga qaratilgan sa’y-harakatlar bo‘ldi. Mustaqillik yillarida turizm statistikasining rivojlanishida amalga oshirilgan islohotlar, yurtimizning global turizm bozorida o‘z o‘rnini mustahkamlashga, iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga va turizm infratuzilmasini takomillashtirishga xizmat qildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston turizmni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratdi. Biroq, bu davrda turizm statistikasi hali shakllanmagan, faqatgina ba’zi asosiy

ma’lumotlar yig‘ilishi yo`lga qo`yilgan edi. Yirik turistik markazlar va ahamiyatli yo‘nalishlar yaratish uchun zarur bo‘lgan infratuzilma hali rivojlanmagan edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston hukumati turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashabbuslar e’lon qildi. Lekin, turizm statistikasi tizimining yo‘qligi yoki zaifligi tufayli turistik oqimlarni aniq hisoblash va iqtisodiy ta’sirni baholashda muammolar mavjud edi.

Shuningdek, turistik xizmatlar sohasida me’yoriy hujjatlar, qo‘llanmalar va tizimlarning yetishmasligi turizm statistikasi bilan bog‘liq tahlil qilish imkoniyatlarini cheklagan edi. Xalqaro standartlarga to‘liq mos keladigan statistika tizimining mavjud emasligi bu davrning asosiy muammosi bo‘lgan.

2000-yillarning boshidan boshlab, O‘zbekiston turizm statistikasi tizimini takomillashtirish bo‘yicha keng qamrovli islohotlarga kirishdi. Bu davrda turizmni rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan yuridik va tashkiliy infratuzilma shakllanib, davlat va xususiy sektorlar o‘rtasidagi hamkorlik kuchaygan.


2001-yilda O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishga qaratilgan strategiyalar ishlab chiqildi. Bu strategiyalarning bir qismi turizm statistikasining asosiy ko‘rsatkichlarini to‘plash va tahlil qilishga qaratilgan edi.

2000-yillarning o‘rtalaridan boshlab, O‘zbekiston Butunjahon Turizm Tashkiloti (BTT) bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘ydi. Bu esa turizm statistikasi tizimining xalqaro standartlarga moslashishiga olib keldi. Turizm sektoridagi ma’lumotlar yig‘ish metodologiyasi va hisobot tizimlari yaxshilandi.

Statistik Tizimni Markazlashtirish: O‘zbekiston 2000-yillar oxirida turizm statistikasi tizimini markazlashtirishga kirishdi. Buning natijasida turizmga oid barcha ma’lumotlar yagona tizimga jamlandi va ularni tahlil qilish imkoniyatlari kengaydi.

2010-yildan keyin O‘zbekiston turizm statistikasini xalqaro miqyosda sifatli va taqqoslanadigan tizimga aylantirish uchun katta qadamlar tashladi. Bu davrda turizmni rivojlantirishning iqtisodiy va ijtimoiy ta’sirini baholashda yangi texnologiyalardan foydalanish boshlandi.

2010-yillarning boshida O‘zbekiston turizm statistikasi tizimining xalqaro hamkorlikka asoslangan metodologiyalarni joriy qilishni boshladi. BTT va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan o‘tkazilgan forumlar va konferensiyalar natijasida turizm statistikasi tizimi yangi metodologiyalar bilan boyitildi.



Jadval III

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda turizm statistikasining rivojlanish bosqichlari

O‘zbekiston raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali turizm statistikasi tizimini yanada samarali qilishga erishdi. Elektron vizalar tizimi, yagona darcha tizimi va onlayn turizm platformalarini yaratish orqali turizm statistikasi sohasidagi ma’lumotlar yig‘ish va tahlil qilish jarayonlari tezlashdi.

2010-yildan keyin turizm daromadlari va xarajatlarining aniq hisoblanishi bo‘yicha yangi metodologiyalar joriy etildi. Bu, turizmning iqtisodiy ta’sirini yaxshiroq baholash va iqtisodiyotga qo‘shgan ulushini aniqlash imkonini berdi.

2020-yillarda O‘zbekiston turizm statistikasi tizimi yanada rivojlanib, xalqaro miqyosda raqobatbardosh tizimga aylanishi kutilmoqda. Yangi texnologiyalarni qo‘llash, statistik metodologiyalarni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish bo‘yicha ishlanmalar davom etmoqda.

O‘zbekiston 2021-yildan boshlab yagona turizm statistikasi tizimini yaratishni maqsad qilgan. Bu tizim orqali barcha turizmga oid ma’lumotlar markazlashtiriladi va ulardan samarali foydalanish ta’minlanadi.

O‘zbekiston turizm statistikasi sohasida sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar (Big Data) va boshqa zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashni boshladi. Bu esa ma’lumotlarni real vaqtda yig‘ish va tahlil qilish imkoniyatini yaratdi.

Xulosa: Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda turizm sohasi jadal sur’atda rivojlandi va bu jarayonda statistik ma’lumotlarning to‘g‘ri yig‘ilishi, tahlili hamda xalqaro standartlarga muvofiq tarzda shakllantirilishi muhim o‘rin tutdi. Turizm statistikasi rivojining dastlabki bosqichlarida tizimda jiddiy kamchiliklar kuzatilgan bo‘lsa, bugungi kunga kelib, ularni bartaraf etish maqsadida qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni mustahkamlash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish, elektron monitoring tizimlarini joriy etish va turistik oqimlarni aniq prognoz qilish usullarini rivojlantirish muhim qadamlardan biri bo‘ldi.

Kelajakda turizm statistikasi yanada takomillashtirilishi kutilmoqda. Turizm sektori iqtisodiyotning muhim bo‘g‘ini sifatida diversifikatsiya qilinib, yangi xizmat turlari va bozor segmentlarini o‘z ichiga olgan holda yanada rivojlanadi. Zamonaviy texnologiyalar va sun’iy intellektdan keng foydalanish turizm statistikasi sifatini oshirishda asosiy yondashuvlardan biri bo‘lishi mumkin. Shu bois mamlakatimiz turizm iqtisodiyoti rivoji uchun ishonchli statistik ma’lumotlar bazasini shakllantirish va ularni doimiy yangilab borish muhim strategik yo‘nalish hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. “O‘zbekiston – 2030” Strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti.
2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. (2023). O‘zbekiston turizm statistikasi yillik hisobotlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi. (2023). O‘zbekistonda turizm sohasi: Rivojlanish tendensiyalari va istiqbollar. Toshkent.
4. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. (2022). O‘zbekistonda turizm sohasi rivojlanishining dolzarb masalalari. Ilmiy to‘plam, Toshkent.

5. BMT Jahon Turizm Tashkiloti (UNWTO). (2023). Xalqaro turizm statistikasi va rivojlanish tendensiyalari. Jahon turizm hisobotlari. Madrid, Ispaniya.
6. OECD. (2023). Tourism Trends and Policies 2023. Organisation for Economic Co-operation and Development.
7. World Travel & Tourism Council (WTTC). (2023). Economic Impact of Travel & Tourism.
8. O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. (2023). O‘zbekiston turizm statistikasi yillik hisobotlari.
9. Shamsiev, I. S. (2021). “O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishning dolzarb masalalari va istiqbollari.” O‘zbekiston iqtisodiyoti jurnali, 5(12), 34-45.
10. Tursunov, B., & Karimov, U. (2023). “O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish strategiyasi va innovatsion yondashuvlar.” Ilmiy tadqiqotlar va yangiliklar jurnali, 2(1), 56-70.
11. Xalilova, N. & Usmonov, I. (2021). Turizm industriyasining rivojlanish tendensiyalari O‘zbekistonda. Toshkent: O‘zbekiston Milliy Universiteti Nashriyoti.